

KURSANTLARNING BILISH FAOLLIGINI OSHIRISHDA TINGLAB TUSHUNISH KO`NIKMASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Nargiza Shirinova

Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti

Annotatsiya: Maqola ingliz tili darslarida kursantlarning bilish faolligini oshirishda tinglab tushunish ko`nikmasini shakllantirish usullariga bag'ishlangan. Oliy o'quv yurti kursantlarining bilish faolligini oshirishning ahamiyati ko'rsatilib, bilish faolligini oshirishda tinglab tushunish ko`nikmasini shakllantirish o'rgatish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar: bilish faolligini oshirish, tinglab tushunish ko`nikmasini shakllantirish o'rgatish, ixtisosiy o'qitish, kursantlarning qiziqishini oshirish.

Kursantlarning bilish faolligini oshirish, albatta, ularning tinglab tushunish ko`nikma va malakalarini shakllantirish bilan ham uzviy bog'liqdir. Bu esa, faqatgina amaliyotni talab qiladi, turli mazmundagi matnlarni tinglash va mashqlar bajarish orqali tinglab tushunish bo'yicha ko`nikma va malakalar shakllanadi. Ma'lumki, bilimlar ma'lum bosqichda o'zlashtiriladi, ya'ni tinglanadi yoki o'qiladi, taqlid qilinadi, gapirish va yozuvda qo'llaniladi, shuningdek, aynan shu bosqichlarda kursantlarning bilish faolligi oshib boradi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, nizo va tushunmovchiliklarning 60% i tinglab tushunish ko`nikmasining yetarli darajada shakllanmaganligi sababli yuzaga kelsa, atigi 1 % i o'qish ko`nikma va malakalarining yetarli bo'lmaganligi uchun paydo bo'lmoqda. Tinglab tushunish ko`nikmasining shakllanganligi nafaqat kursantlarning akademik ko`nikmasi sifatida namoyon bo'ladi, balki kasbiy, ya'ni, harbiy faoliyatlarida ham as qotadi.

Kursantlar turli darajada tinglashlari mumkin, masalan, matn mazmunini to'liq tushunish, ya'ni chalg'ituvchi savollarga to'g'ri javob berishga qiynalmaslik kursantlarning faol tinglash bosqichlarida namoyon bo'ladi va aksincha, sanalar, oylar, hafta kunlari, joy nomlari, shaxslar haqidagi ma'lumotlarni olish maqsadidagi tinglash passiv tinglash hisoblanadi. Tinglab tushunish ko`nikmasini shakllantirish, ya'ni ularning bilish faolligini oshirish bir qator afzalliklarga ega. Masalan, tinglab tushunish ko`nikmasi shakllangan kursantlar nafaqat mashq bajarish jarayonida yutuqlarga erishadilar, balki hayotning barcha jabhalarida ham undan unumli foydalanishadi, shuningdek, ularning o'zlariga bo'lgan ishonchlari ham oshib boradi. Kursantlarda tinglab tushunish ko`nikmasini shakllantirish orqali biz ingliz tilida fikrlarni og'zaki va yozma izhor eta olish ko`nikmalarini ham shakllantirishga erishamiz. Kursantlar ingliz tilida tinglagani sari ularning bilish faolligi oshib boradi, keyinchalik uni nutqda

qo'llash istagi paydo bo'ladi. Kursantlarning bilish faolligi oshgan sari ularning ongli ravishda tinglashlari ham rivojlanib boradi, buning natijasida ularda o'z kuchiga ishonish, tashvish va tushkunliklardan xoli bo'lish kabi psixologik holatlar kuzatiladi. Bu esa, ularning tengdoshlari bilan ingliz tilida erkin suhbatga kirishishlari, turli mavzularda bahslar olib borishlariga yordam beradi. Shuning uchun ham, o'qituvchilar tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirishning samarali usul va vositalari bilan qurollantirilishi kerak. Ularni quyida ko'rib chiqamiz:

Matn oldi mashqlar

1. Auditoriyada tinglash uchun muhit yaratish.

Tinglab tushunishga mo'ljallangan audiomaterialni tinglash jarayonida auditoriyadagi imkoniyatlar hisobga olinishi zarur, o'qituvchi imkon qadar tinchlikni saqlashga, zarur paytda quloqchinlardan foydalana olishlarini ta'minlashga mas'uldir.

2. Tinglab tushunishni amalga oshirish bo'yicha yo'riqnomalar berish.

Ushbu bosqichda, o'qituvchi tomonidan tinglab tushunish vositalari va mashqlarini bajarish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Masalan, audiomatnning tezligi va balangligiga e'tibor qaratish ham asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, oldin mavzuni o'qish va keyinchalik mashqning maqsadi kabilarga e'tibor qaratish, savollarni ko'zdan kechirish, kalit so'zlarni aniqlab olish va diqqatni ularga qaratish kabi ishlar tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradigan birinchi bosqichdir.

4. Scaffold qayd qilish.

Kursantlar tinglab tushunishdagi materialning asosiy mohiyatiga diqqatlarini qaratishlari uchun o'qituvchi tomonidan tuzilgan klaster va diagrammalardan foydalanishlari zarur, shuningdek, kursantlar tinglash jarayonida qaydlar qilish va turli talaffuzga ega bo'lgan matnlarni ham tinglashlari va mazmunini ilg'ab olish bilan bog'liq bo'lgan mashqlarni bajarishlari muhim ahamiyatga ega.

Tinglash jarayonida kursantlar harbiy muloqot olib borish jarayonini va beriladigan buyruqlarni yozib boradi va klaster shaklida shakllantiradi. Ushbu jarayonda kursantlar tinglab tushunish materialini qanchalik darajada tushuna olganligi tekshiriladi. Masalan,

Give warning

Charge weapons

Fire warning shorts

Use deadly force

5. Muammoni yechish strategiyasi.

Tinglab tushunish jarayonida kursantlar so'zlarning ma'nosini anglash bilan bog'liq bo'lgan muammoga duch kelishsa, matndagi kalit so'zlarni ilg'ab olish kabi amallar olib borilishi zarur. Kursantlar mustaqil ravishda tinglab tushunishi jarayonida

audiomaterialni vaqtincha to'xtatib turib, zarur paytda yana qaytib eshitish imkoniyatiga ega bo'lishlari zarur. Yuqorida keltirilgan tavsiyalar tinglab tushunish jarayonida amalga oshiriladi.

Ushbu mashqni bajarish jarayonida kursantlar ma'lumot olishga diqqatlarini qaratishlari va zarur hollarda audiomaterialni to'xtatish va yana bir marta tinglash kabi amallarni bajarishadi. Ushbu jarayonda kursantlarda so'zlarning talaffuzi va matn tezligi bilan bo'lgan ba'zi bir muammolarni hal qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

Matndan keyingi mashqlar

6. Tinglab tushunish ko'nikmasining shakllanishi.

Kursantlar audiomatnning asosiy g'oyasini anglashlari, uning mohiyatini tahlil qilish kabi ishlarni bajarishadi. Shuningdek, matn mazmuniga daxldor bo'lgan savol-javob mashqlari, matn mazmunini bir-birlariga so'zlab berish va muhokama qilish kabi amallar matndan keyingi mashq sifatida bajariladi. Ushbu ishlarni turlicha tashkillashtirish mumkin, masalan, kursantlarning sherikchilikdagi faoliyati, kichik guruhlarda yoki yakkanutq(monolog)lar orqali amalga oshirish mumkin. Bu bilan bir qatorda, kursantlar tinglagan mavzudagi materiallar bo'yicha fikrlarini yozma nutqda ham ifodalashlari mumkin, ya'ni video va audiomateriallarga o'z munosabatlarini incho va bayonlarda aks ettirishlari mumkin. Masalan, quyidagi mashqdan keyin kursantlarning tinglab tushunish ko'nikmasi shakllanib, uni gapirish yoki yozuvda qo'llash imkoniyati yaratiladi.

Listen to the example conversation and check. Now practise your conversation.

Kursantlar audiomatnni tinglab tushunib uni taqlid qilgan holda o'zlari shu mavzuda suhbat olib borishadi. Yuqorida keltirilgan tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirishga mo'ljallangan usullar ingliz tili o'qitish jarayonida kursantlarning bilish faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Иканова, Л. (2025, March). ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПРАВ ОСУЖДЕННЫХ И ЛИШЕННЫХ СВОБОДЫ ЛИЦ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАНЬ И ИХ ВНЕДРЕНИЕ В ПРАКТИКУ. In International Educators Conference (pp. 116-120).
2. Lazokat, I. (2022). Enhancing listening skills with the help of digital tools. Thematics journal of English language teaching, 6(1), 136-139.
3. Ikanova, L. S. (2019). The impact of materials development, critical pedagogy and lgbt's issue on the language planning and policy. Вестник педагогики: наука и практика, (48), 68-70.
4. Ikanova, L. S. Q. (2024). SUDLANGAN SHAXSLAR VA MAHKUMLARNING XULQ ATVORI VA QAYTA JINOYAT SODIR ETISHINI BARTARAF

- QILISHDA TA'LIMNING TA'SIRI (AQSH TAJRIBASI MISOLIDA). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(1), 433-439.
5. Иканова, Л. (2024). ОБРАЗОВАНИЕ В ТЮРЬМЕ: ФУНДАМЕНТАЛЬНОЕ ПРАВО И ВАЖНЫЙ ИНСТРУМЕНТ. In *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences* (Vol. 3, No. 5, pp. 269-275).
 6. Ikanova, L. S. (2024). JAZONI IJRO ETUVCHI MUASSASSALARDA, TA'LIMNI TASHKIL QILISH TAJRIBALARI (AQSH MISOLIDA): Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 7(3), 26-31.
 7. Ikanova, L. (2019). Learners' digital literacy of students in language classrooms. *Trends in Teaching Foreign Languages: Achievements, Challenges and Solutions*, 98-99.
 8. Ikanova, L. (2019). THE IMPACT OF MATERIALS DEVELOPMENT, CRITICAL PEDAGOGY AND LGBT'S ISSUE ON THE LANGUAGE PLANNING AND POLICY. *SCIENCE. RESEARCH, DEVELOPMENT*, 59-62.
 9. Yodgorov, M. (2020). ISLOM MANBALARIDA AYOLLAR E'ZOZI. *Студенческий вестник*, (10-2), 97-99.
 10. Shirinova, N. D. (2024). INPARALLELISM IN ENGLISH. ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI BEKE, (55-3).
 11. Shirinova, N. D. (2024). GRADUAL INPARALLELISM IN UZBEK. ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI BEKE, (55-3).
 12. Shirinova, N. (2025). INGLIZ TILI DARSLARIDA HARBIY OLIY TALIM MUASSASALARI KURSANTLARINING OQISH KONIKMASIINI SHAKLLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YOLLARI. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 71(1), 208-212.
 13. Shirinova, N. (2025, March). KURSANTLARNING BILISH FAOLLIGINI OSHIRISHDA YOZUVNI O'RGATISH USULLARI. In *International Educators Conference* (pp. 121-126).
 14. Shirinova, N. D., & Davlatova, M. K. MORPHOLOGICAL WAY OF DIFFERENTIATION OF SUBSTANCE AND ATTRIBUTIVE MEANINGS IN THE LANGUAGE SYSTEM. *ILMIY XABARNOMA. НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК Учредители: Андижанский государственный университет им. ЗМ Бабура*, (1), 86-89.
 15. Kenjabayevna, D. G. (2025, March). THE IMPORTANCE OF GRAMMAR GAMES IN TEACHING ENGLISH. In *International Educators Conference* (pp. 107-115).
 16. Дарвишова, Г. К. (2025). ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА НАЧАЛЬНОМ ЭТАПЕ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 71(1), 191-195.
 17. Darvishova, G. K. (2024). TIL SINTAKTIK QURILMALARINI O'RGANISHNING DOLZARB MASALALARI. ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI BEKE, (55-3).

18. Дарвишова, Г. К. (2024). К ВОПРОСУ ПОНИМАНИЯ ТЕКСТА НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ. ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ, (55-3).
19. Дарвишова, Г. К. (2022). ШАРЛОТТА БРОНТЕ АСАРЛАРИДА БАДИЙИ МАҲОРАТ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 26), 754-757.
20. Darvishova, G. K. S. B. I., & MAVQEI, A. I. ORIENSS. 2023.№ 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sharlotta-bronte-ijodida-ayolning-ijtimoiymavqei> (дата обращения: 10.10. 2023).
21. Ширинова, Н. Д. (2021). ЭЛ-ЮРТ ХУРМАТИГА САЗОВОР УСТОЗ: Ширинова Нилуфар Джаббаровна, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети Тилларни ўрганиш кафедраси доценти, филология фанлари номзоди, доцент. In Научно-практическая конференция.
22. Ширинова, Н. (2024). ГРАДУАЛ ПАРАЛЛЕЛИЗМ. Наука и инновация, 2(23), 97-103.
23. Ширинова, Н. Д., Давлатова, М. Х., & МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ, С. КАЧЕСТВЕННОСТИ В СИСТЕМЕ ЯЗЫКА. Muassis: Buxoro davlat universiteti TAHRIRIYAT: Muharrirlar: MQ Abuzalova MA Bokareva NN Voxidova, 40.
24. Shirinova, N., & English, A. N. L. L. (2016). for Agriculture. Study-book for the students of agriculture.
25. Shirinova, N. (2018). AUTHENTIC MATERIALS IN VOCABULARY DEVELOPMENT PROCESS. In International Scientific and Practical Conference World science (Vol. 7, No. 6, pp. 11-15). ROST.
26. Pulatova, Z. Factors For The Development Of Writing Skills Of Law Students In A Modular System.
27. Pulatova, Z. (2021). MODULE SYSTEM AND TOOLS FOR DEVELOPING WRITING SKILLS OF LAW STUDENTS. *Philology Matters*, 2021(3), 196-209.
28. Abduazizovna, P. Z. (2025). PRINCIPLES OF EFFECTIVE FORMATIVE ASSESSMENT IN EFL/ESL. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 71(1), 202-207.
29. Abduazizovna, P. Z. (2025). SUMMATIVE ASSESSMENT STRATEGIES AND THEIR USAGE. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 71(1), 196-201.
30. Sayyora, I. (2022). The role of repetition as a stylistic tool in political texts. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 13(1), 65-79.